



## XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA 2+2 TA'LIM DASTURLARINING AFZALLIKLARI

**Umirova Bahora**

*Samarqand viloyati Payariq tumani 23-maktabning 11-"B" sinf o'quvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda 2+2 qo'shma ta'lim dasturlarining afzalliklari hamda talabalar uchun yaratilgan iqtisodiy va akademik imkoniyatlar asosan ikki tomonlama diplomning ahamiyati bayon etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *2+2 dasturi(2+2program),2 tomonlama diplom(double degree),til muhiti(language immersion),akademik adaptatsiya(academic adaptation).*

Zamonaviy va rivojlangan asrimizda Oliy ta'lim nafaqat bilim olish,balki xalqaro mehnat bozoriga ega bo'lish vositasiga aylandi.Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalar uchun eng samarali va moddiy jihatdan qulay bo'lgan usul bu 2+2 qo'shma ta'lim dasturidir.Ushbu tizimda talaba 2 yil o'z vatanida 2 yil xorijiy hamkor universitetda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi.Avvalo,bu usul iqtisodiy tejamkorlik va moslashuvchanlik muhitini yaratadi.Xorijda 4 yil davomida,yashash va o'qish qimmatga tushishi mumkin.Statistik ma'lumotlarga ko'ra,2+2 dasturi bitiruvchilari xalqaro kompaniyalarda to'g'ridan to'g'ri vatanidan o'qigan tengdoshlariga qaraganda tezroq moslashadilar,chunki ular 2 xil ta'lim madaniyatini ham o'zlashtirgan bo'ladilar.Bundan tashqari ushbu dasturning eng jozibali jihatlaridan yana biri shuki,Double Degree(Ikki tomonlama diplom)tizimidir.Bitiruvchi ham mahalliy ham xorijiy universitet diplomiga ega bo'ladi va dunyoning istalgan nuqtasida ish topishi,eng asosiysi magistraturani grant asosida davom ettirishi mumkin.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,xorijda bir yil yashagan talabaningtil bilish darajasi o'z yurtida 4 yil o'qigan talabanikidan 3 barobar tezroq o'sadi.Masalan,O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti(O'zDJTU) va Adigey davlat universiteti (Rossiya)o'rtasidagi rus tili fakultetida akademik va jonli muloqotni mukammal egallash imkonini beradi.Shunday ekan,2+2 shunchaki ta'lim emas,balki kelajakka tikilgan ishonchli investitsiyadir.Negaki,qo'shma ta'lim yoshlarga o'z vatanidan uzilmagan holda jahon standartlari darajasida bilim olish hamda xalqaro maydonda o'z yo'lini topish imkonini yaratadi.

Qo'shma ta'lim asosida tahsil olgan talabalarda til ko'nikmasining rivojlanishi,eng asosiy va ko'zga tashlanadigan tomoni dunyoqarash hamda fikrlash saviyasining boyishi o'rnak bo'ladigan jihatlaridan biri sanaladi.Yana bir afzalliklardan biri,talabalar o'qish davomida mutaxassisligini o'zgartirishi,tildan tashqari iqtisodiyot,menejment, axborot texnologiyalari kabi yo'nalishlarda ham ta'lim olishi va ikki diplomga ega bo'lishi mumkin.Dastur bitiruvchilari xohlasa O'zbekistonga mutaxassis sifatida qaytishi,istasa tanlagan mamlakati(Koreya,Xitoy,Rossiya)



kabi hamkor tashkilot va kompaniyalarda ish boshlashi mumkin. Qo'shma ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgandan so'ng ko'pchilik ilmga ixlosmand yoshlar Jeonbuk milliy universitetida ta'lim olishdi. Agarda talaba bakalavrni muvaffaqiyatli yakuklasa, yana o'sha universitetda grant asosida magistraturani ham davom ettirish imkoniga ega bo'ladi. Barcha talabalar uchun moddiy tomondan ancha qulay bo'lgan qo'shma ta'lim dasturi ko'pchilik yoshlarning "chet elda o'qish" orzusini amalga oshirdi, nafaqat orzularni ro'yobga chiqardi balki yetuk va bilimdon mutaxassislarni tayyorlashda keng ko'lamli eshiklarni ochdi. O'zbekiston misolida ushbu dasturning rivojlanishi so'nggi yillarda keskin sur'atda oshdi: o'sish sur'ati: 2018-yilda O'zbekistonda 15-20 ta qo'shma ta'lim dasturi mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 500 tadan oshdi. Eng ko'p qo'shma dasturlar esa Rossiya, Janubiy Koreya, Belorussiya va Yevropa Ittifoqi davrlari bilan yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda O'zbekistonlik 15 000 dan ortiq talaba (2+2) asosida tahsil olyapti.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti rasmiy sayti ma'lumotlari (uzswlu.uz).
3. UNESCO Global Education Monitoring Report "Innovation Higher Double Degree Program".